

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

JUMAYEV JONIBEK SHODIYEVICH

**O‘ZBEKISTON MA’NAVIY TARAQQIYOTIDA
DINIY TAFAKKUR EVOLYUTSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI**

09.00. 04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Jumayev Jonibek Shodiyevich

О'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur
evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 3

Жумаев Жонибек Шодиевич

Социально-философские характеристики эволюции религиозного
мышления в духовном развитии Узбекистана 21

Jumayev Jonibek Shodiyevich

Socio-philosophical characteristics of the evolution of religious thinking in the
spiritual development of Uzbekistan 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

JUMAYEV JONIBEK SHODIYEVICH

**O‘ZBEKISTON MA’NAVIY TARAQQIYOTIDA
DINIY TAFAKKUR EVOLYUTSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI**

09.00. 04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal497 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Isroilov Bektosh Erkinovich
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.:(0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor.

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent.

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi kunda kishilik jamiyatida barqaror tinch-totuvlikni va millatlar o'rtasidagi ahillikni ta'minlash g'oyatda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Zero, bugungi globallashuv jarayonida yuz berayotgan din va diniy tafakkur bilan bog'liq jarayonlar jahon miqyosida tobora avj olib bormoqda. Insoniyat tarixiy taraqqiyotidan ma'lumki, din butun olamning muvozanatini ta'minlab, kishilarni axloqiy dunyoqarashini shakllanishida muhim o'rin tutgan va bugungi kunda ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, insonlarning dinga bo'lgan munosabati ularni bu tushunchaning ma'nosini tafakkur qilishga undab, kishidan ratsionallikni talab qilishga va uning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini aniqlashga bo'lgan ehtiyojni saqlab qolmoqda.

Jahon ilm-fanida din va uning inson taraqqiyotidagi rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy, amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, din va uning yuzaga kelish tarixi, inson ma'naviy qiyofasini shakllantirishda dinning o'rnini, diniy tafakkur va diniy ong o'rtasidagi bog'lanishlar, diniy tafakkurning elementlari, tushunchalari, diniy dunyoqarash, diniy tafakkurning ijtimoiy mohiyati, shakllanishi qonuniyatlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqadorlik muammolari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga bugungi globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlarida millatlararo totuvlikni ta'minlash, ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini hisobga olgan holda diniy tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirayotgan yot g'oyalar kabi mafkuraviy xurujlarni vaqtida sezish, ta'sir doirasini aniqlash, eng muhimi, ularga qarshi ishonchli himoya tizimini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «Avvalambor, «ommaviy madaniyat» ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak»¹. Shu nuqtai nazardan ham vujudga kelayotgan muammolarni o'rganish, oqibatlarini tahlil qilish va munosib yechimini topishda diniy tafakkurning konseptual asoslarini ko'rsatib beruvchi yangicha metodologik yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» farmoyishi va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni hamda

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б.89.

mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Diniy tafakkurning ijtimoiy mohiyati, shakllanishi qonuniyatlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi aloqadorlik muammolari ijtimoiy falsafaning mudom o'rganib kelingan masalalari turkumiga kiradi. Diniy tafakkur bir necha asrlardan buyon turli kontekstlarda o'rganib kelingan. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita diniy tafakkur evolyutsiyasining ilmiy-nazariy tahlili bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Xususan, Yevropa sharqshunoslaridan K.Brokkelman, Madelung² va juda ko'lab olimlar, diniy ulamolar tomonidan diniy tafakkur va diniy ong o'rtasidagi bog'lanishlar, diniy tafakkurning elementlari, tushunchalari, diniy dunyoqarash bo'yicha istiqbollari o'rganilgan. Shu o'rinda biz asosan o'z mavzuimiz doirasidagi zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda diniy tafakkur evolyutsiyasi va tahliliga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratdik. Jumladan, Rappaport Roy³ diniy tafakkur vujudga kelishini bevosita diniy marosim va an'analarning shakllanishi bilan bo'lab tadqiq etadi, Palmer, Douglas, S.Lamb, G.Angeles, Gavira, P.Frances⁴ kabi olimlar diniy tafakkur elementlarini dastlabki neandertallardagi dafn marosimlarining shakllanishi bilan bog'lab tushunturishadi; Robin Dunbar⁵, Lewis Wolpert⁶ va Stephen Jay Gould⁷ diniy tafakkur taraqqiyotini insoniyat ongining tobora o'sib borishi, dastlabli tilning shakllanishi hamda mehnat qurollarini yasash, uni tushunish, ulardan foydalanishning kelib chiqishi bilan bog'liqlikda tahlil etishadi; Lionel Tiger va Michael Mc Guire⁸ diniy tafakkurni kuchli omon qolish istagi sifatida shakllanganini e'tirof etishsa, Dávid-Barrett Tamás, Carney James⁹ diniy-falsafiy tafakkur evoyutsiyasini insondagi psixologik mexanizm bilan bog'lab, e'toqod-xohish-maqсад kabi his-tuyg'ular zahirida dastlabki jamoaviy e'tiqod kelib chiqqanligini e'tirof etishadi.

² Madelung W. The Spread of Moturidioman the Turks/ Actas IV Congresso de arabes Islomicos. Coimbra-lisboa. 1a8 de Setembro de 1968. – Leiden: Brill. 1971. – P.109-168.

³ Rappaport Roy. Ritual and religion in the making of humanity. Cambridge, UK New York: Cambridge University Press. 1999.

⁴ Palmer, Douglas, Lamb S, Angeles G, Gavira, Frances P. Prehistoric Life: the Definitive Visual History of Life on Earth. New York, NY: DK Pub., 2009.

⁵ Dunbar R. The Social Brain: Mind, Language, and Society in Evolutionary Perspective. 2003. P.163-181. ISSN 0084-6570

⁶ Lewis Wolpert. Six impossible things before breakfast, The evolutionary origins of belief . New York: Norton. 2006. –P. 82.

⁷ Stephen Jay Gould, Paul McGarr, Steven Peter Russell Rose, Challenges to Neo-Darwinism and Their Meaning for a Revised View of Human Consciousness. New York: Norton. 2007. – P. 232-233.

⁸ Lionel Tiger, Michael Mc Guire. God's Brain. Prometheus Books. 2010. - P. 202-204.

⁹ Dávid-Barrett Tamás, Carney, James. The deification of historical figures and the emergence of priesthoods as a solution to a network coordination problem. Religion, Brain, Behavior. 2015. –P.307-317.

Ikkinchi guruh. MDH mamlakatlarida ham mavzuga doir qator diqqatga sazovor ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.Avanesov diniy tafakkur mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari, xususiyatlari, diniy va falsafiy dunyoqarashni bog‘liqlikda tahlil etadi; A.Y.Chaykovskiy, N.A.Kapochkina, M.S.Kudryavsev¹⁰, diniy tafakkur evolyutsiyasini turli darajalarga, bosqich va yo‘nalishlarga bo‘lib tadqiq etishadi; A.Z.Nurilova va A.A.Akimova¹¹ diniy tafakkur murakkab va ziddiyatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tish mobaynida har bir davr mafkurasi, siyosati, huquq, axloq va san‘at tizimiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatganligini e‘tirof etishadi; A.Dadashev, A.Gezalov¹² diniy tafakkur taraqqiyotini falsafiy va madaniy dunyoqarash shakllanishi bilan uyg‘un tarzda tahlil etishadi; Z.Baybusanova¹³ islom dini va madaniyatining diniy tafakkur evolyutsiyasiga ta‘sinini ilmiy-nazariy asoslaydi; Shuningdek, A.K.Sultongaliyeva¹⁴ ham islom evolyutsiyasining Markaziy Osiyo mamlakatlari diniy tafakkuriga konstruktiv ta‘sirini yoritib bersa, Tojikistonlik olim, falsafa fanlari doktori I.Asadullayev¹⁵ Markaziy Osiyo xalqlari diniy tafakkuri taraqqiyotida zardo‘shiylik, moniylik, mazdakiylik, islom ta‘limotlarining ta‘ririni falsafiy-konseptual asoslab beradi.

Uchinchi guruh. Mamlakatimiz ma‘naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari yuzasidan keyingi yillarda qator ilmiy ishlar e‘lon qilindi. xalqimizning diniy tafakkuri shakllanishi va rivojlanishida bundan 3000 yil avval bitilgan “Avesto” asarini, shuningdek, Imom Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” va “Al-adab al-mufrad”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk”, Imom G‘azzoliyning “Ihyou ulumiddin”, “Tafakkur kitobi” kabi nodir asarlari tarixiy manba va falsafiy asos sifatida keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Yurtimizdagi dinshunos olimlar, faylasuflar, tarixchi va etnograflar tomonidan din va diniy tafakkurning ijtimoiy mohiyati, shakllanishi qonuniyatlariga doir qator ilmiy-falsafiy mulohazalar ilgari surilgan. Bu mulohazalar turli munosabatlar bilan, turfa masalalar kontekstida bayon etiladi. Jumladan, Avesto va zardushtiylik tafakkuri, uning mamlakatimiz ijtimoiy-ma‘naviy yuksalishiga ta‘siri yuzasidan M.Isoqov, H.Homidiy¹⁶, T.Karim¹⁷, G.Maxmudova¹⁸, M.Ergashevalar¹⁹ o‘z tadqiqot ishlarini taqdim etishgan; Shuningdek diniy tafakkur evolyutsiyasi va uning xalqimiz ma‘naviy-mafkuraviy hayotiga ta‘siri bo‘yicha H.Karomatov²⁰, I.Karimov²¹, Sh.Haitov²², B.O.Turayev²³

¹⁰ Чайковский А. Е., Капочкина Н. А., Кудрявцев М. С. История религий. Учебное пособие. Нижний Новгород: Нижегородский государственный технический университет, 2001.

¹¹ Нурилова А.З., Акимова А.А. Возникновение и эволюция идеи бога в историческом процессе // *Фундаментальные исследования*. – 2015. – № 2-18. – С. 4113-4117.

¹² Дадашев А, Гезалов А. Эволюция взаимозависимости религиозной и философской рефлексии. “Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari” // Volume 2 | Special issue 23. 2022. – С. 7-14.

¹³ Байбусанова З. Гуманистическое содержание культуры ислама // *Экспресс К*. — 03.06.2009. — № 343 (16729) .

¹⁴ Султангалиева А. К. Ислам в Казахстане: история, этничность и общество. — Алматы: КИСИ при Президенте РК, 1998. — С. 188.

¹⁵ И.Асадуллаев: Философия таджиков. Газета "Нигоҳ", 2008.07.01. <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1199659380>

¹⁶ Ҳомидий Ҳ. Авестодан шоҳномага. –Т.: Шарқ, 2007. – Б. 320.

¹⁷ Тохир Карим. Авестонинг сирли олами. –Т.: ТДИУ, 2007. – Б.58.

¹⁸ Махмудова Г, Арифханова С. Зардўштийлик фалсафаси. –Т.: Noshir, 2014.

¹⁹ Эргашева М. Авестонинг синергетик таҳлили. Монография. – Самарқанд: “СамДУ”, 2016. – Б. 159.

²⁰ Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий этикодлар тарихи. –Т.: 2008. – Б. 664.

kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovor; Tasavvuf falsafasining mohiyati va diniy tafakkurga ta'siri yuzasidan esa N.Komilov²⁴, G.Navro'zova, Maxdumi A'zam ta'limoti bo'yicha X.Samatov²⁵, B.Turaev, islom muhaddislarini o'rganish borasida U.Uvatov kabi olimlarning izlanishlarini e'tiborga loyiq; Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda diniy tafakkurning ma'naviy taraqqiyotga ta'siri yuzasidan faylasuf olimlarimiz I.Saifnazarov, A.Muhtarov, T.Sultonov, A.Tolibovlarning ham ilmiy tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin²⁶.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor, biroq, bizning tadqiqot ishimizda avvalgi tadqiqotlarda jiddiy e'tibor qaratilmagan, diniy tafakkurni shakllantirish masalasiga zamonaviy yondashuv orqali diniy qadriyat, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik muammolarini o'rganish hamda yangi O'zbekistonda oqilona diniy tafakkur orqali ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishish masalasi ilmiy-falsafiy tahlil etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur disseratsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan istiqbolli ish rejasiga muvofiq B.01-1-son "O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish orqali milliy taraqqiyotning yangi bosqichida oqilona diniy dunyoqarashni shakllantiruvchi konstruktiv taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diniy tafakkur tarixiy taraqqiyot mexanizmini tizimli tarzda o'rganish va falsafiy-tahliliy qarashlarni ishlab chiqish;

diniy tafakkur evolyutsiyasini progressiv tarzda sotsio-falsafiy tahlil qilish;

yangi ma'naviy makonni yaratishda diniy tafakkurning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish;

diniy tafakkur va ijtimoiy uyg'unlikni diniy tolerantlikning atributi sifatida tahlil qilish;

diniy-ma'naviy hamda ilmiy-amaliy tizimni yangilash va optimallashtirish zaruratini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkurning rivojlanish jarayoni tanlab olindi.

²¹ Каримов И. Имон ва маслак тарихи. –Т.: Янги нашр, 2010.

²² Ҳайтов Ш. Ўзбекистон фалсафа тарихи. –Т.: Noshar, 2011. – Б. 535.

²³ Тураев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2010. №2. – Б.13.

²⁴ Комилов Н. Тасаввув ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи. 1996.

²⁵ Саматов Х., Абдиқобилов Ш. Махдуми Аъзам Косоний таълимотида оила ва никоҳ масалалари. Илмий рисола. – Т.: Наврўз. 2020.

²⁶ Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sultonov, T., Tolibov, A. Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. International Journal of Advanced Science and Technology 29 (5), 2020. -P. 1846-1853.

Tadqiqotning predmeti mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyoti jarayonida diniy tafakkur elementlarini shakllanishi va uning jamiyat a'zolari sog'lom axloqiy dunyoqarashiga ta'sirini falsafiy-konseptual tahlil etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatning yangilangan ma'naviy qiyofasini shakllantirish va axloqiy tartib nazoratini o'rnatishda sog'lom diniy tafakkurning praksiologik (amaliy) ahamiyati dalillangan;

shaxs diniy tafakkurida namoyon bo'luvchi sinergetik xususiyatlar (barqarorlik va beqarorlik, xaos va tartibot, o'z-o'zini tashkillashtirish) ratsional, konstruktiv diniy bilim shakllanishining asosi ekanligi isbotlangan;

diniy bilim modernizatsiyalashuvi jarayonida shaxs diniy tafakkurini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, obyektiv va subyektiv omillari, evrestik imkoniyatlari falsafiy-konseptual metodologiya asosida aniqlangan;

diniy qadriyatlarning polifunksional, kommunikativ, integrativ jihatlarini yoshlar diniy tafakkurini ilmiy-ma'rifiy konseptga (asos) ko'ra rivojlantirish omili ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

diniy tafakkur tarzining mazmuni, mohiyati, jamiyat taraqqiyotiga konstruktiv ta'siri qiyosiy tahlil, innovatsion yondashuv asosida tizimlashtirilgan;

oqilona diniy tafakkurning shakllanishi, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy asoslarini yaratishda hamda davlatning chuqur o'ylangan strategiyasini amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi borasidagi xulosalar umumlashtirilgan;

respublika miqyosida "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

diniy bilimlarning qolipga solingan ko'rinishlari natijasida jamiyat hayotida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar ilmiy-nazariy tahlil etilib, diniy tafakkurni shakllantiruvchi ijtimoiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Respublika xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan dinshunoslik, ma'naviyatshunoslik, ta'lim va tarbiya falsafasi, inson falsafasi, axloq falsafasi, qadriyatlar falsafasi kabi fanlar doirasida foydalanish, shuningdek, sohaga doir keyingi tadqiqotlarni yangi umumnazariy g'oyalar va falsafiy fikrlar bilan boyitish hamda ilmiy apparatini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ilmiy xulosalari va amaliy tavsiyalaridan oqilona diniy tafakkurni shakllantiruvchi manbalar tayyorlashda,

ta'lim muassasalarida ma'rifiy-diniy tarbiyani amalga oshirish borasidagi ma'naviy faoliyatida, mamlakat ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot darajasini yuksaltirishga doir strategiyalar ishlab chiqishda, shuningdek turli diniy, ma'naviy-ma'rifiy markazlar faoliyatini samarali tashkil etishga oid targ'ibot va tashviqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotida diniy tafakkur evolyutsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tadqiq etish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

jamiyatning yangilangan ma'naviy qiyofasini shakllantirish va axloqiy tartib nazoratini o'rnatishda sog'lom diniy tafakkurning praksiologik (amaliy) ahamiyati dalillanganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazining "Buyuk allomalar yurti" kitobini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiya markazining 2022-yil 17-noyabrdagi 855-son ma'lumotnomasi). Natijada, aholini turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlashga xizmat qilgan;

shaxs diniy tafakkurida namoyon bo'luvchi sinergetik xususiyatlar (barqarorlik va beqarorlik, kaos va tartibot, o'z-o'zini tashkillashtirish) ratsional, konstruktiv diniy bilim shakllanishining asosi ekanligi isbotlanganligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Abu Iso Termiziyning "Sunani Termiziy" asarini tarjimasini tayyorlashda foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-yil 10-oktyabrdagi 01-07/160-son ma'lumotnomasi). Natijada, markaz ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy hamda targ'ibot ishlarini yanada takomillashtirishga, keng jamoatchilikka kishilar ongida sog'lom ma'naviy rivojlanishda konseptual asos sifatida xizmat qilgan;

diniy bilim modernizatsiyalashuvi jarayonida shaxs diniy tafakkurini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, obyektiv va subyektiv omillari, evrestik imkoniyatlari falsafiy-konseptual metodologiya asosida aniqlangani borasidagi ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning "O'rta asr sharq allomalari" kitobini va "Ma'naviyat: Asosiy tushunchalar" izohli lug'atini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil 26-oktyabrdagi 02-03/8775-son ma'lumotnomasi). Natijada, diniy soha vakillarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, diniy tafakkurning ma'naviy sohadagi o'rnini ko'rsatish va uni shakllantirish usullari hamda vositalari keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan;

diniy qadriyatlarning polifunksional, kommunikativ, integrativ jihatlari yoshlar diniy tafakkurini ilmiy-ma'rifiy konseptga (asos) ko'ra rivojlantirish omili ekanligi asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali tomonidan efirga uzatilgan "Xalq mulki" va "Mavzu" turkum ko'rsatuvlari dastur ssenariysini tayyorlashda

foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 17-noyabrdagi 33-49 433-son ma’lumotnomasi). Natijada, Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi allomalarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Diniy sohaning evolyutsion taraqqiyot jarayoni”** deb nomlangan bo‘lib, unda ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot jarayonida diniy tafakkur genezisi hamda mamlakatimizda mustaqillik arafasida diniy-ma’rifiy soha evolyutsiyasining transformatsiyalashuvi muammosi ilmiy-nazariy tahlil etiladi.

“Ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot jarayonida diniy tafakkur genezisi” deb nomlangan birinchi paragrafda diniy tafakkurning tarixiy shakllari, yo‘nalish va oqimlari, shuningdek, sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirishning dolzarb muammolari tarixiy- metodologik nazariyalar asosida falsafiy-konseptual tadqiq etiladi.

Insonlarning dinga qiziqishi qadimdan mavjud bo‘lsada, bugungi kunga kelib kishilar ongida sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirish eng muhi masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki yangilanayotgan va o‘zgarayotgan jamiyat hayotini axloqiy jihatlarini izga solish, uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish azaldan din bilan chambarchas bog‘langandir.

“Tafakkur – inson bolasiga nasib etgan ilohiy ne’matdir. Boshqa biron jonzot Allohning bunday inoyatiga musharraf bo‘lgan emas. Deydilarki, agar miya qon tomirga shikast etsa, idrok susayadi, odam loqayd bo‘lib, quvonchni g‘amdan, yaxshini yomondan ajrata olmay qoladi. U fikrlash, o‘ylash qobiliyatini yo‘qotib, bu dunyoga faqat yemak-ichmak uchun kelgan mahluqdan farq qilmay qoladi”²⁷. Demak, inson tafakkur qilmas ekan, mustaqil fikrlash chanqog‘idan bebahradir.

²⁷ Саид Ахмад. Илоҳий неъмат // Тафаккур журнали. – Т.: Шарк, 1994. №1. – Б. 13.

Tafakkurning yo‘qligi boshqalar fikrining ilohiylashishiga, kishi ruhiyatida monipulyasion jarayonlarning boshlanishiga olib keladi.

Tafakkurning ilk tarixiy shakli asotiriy tafakkurdir. Ibtidoiy jamiyat kishisi olamni bilishda, turli hodisalar, jarayonlar o‘rtasidagi haqiqiy yoki hayoliy bog‘liqlikni, ularning bir-biriga va yerdagi hayotga, odamlar taqdiriga ta’sirlarini aniqlashda va ifodalashda asotirlardan (mifologiyadan) foydalangan.

Disseratsiyada diniy tafakkur genezisini, avvalo, yakka xudolik dinlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liqlikda tadqiq etiladi. Kishilarning dinga bo‘lgan qiziqishining kuchayishi ularni ushbu sohani o‘rganishga chorlaydi. Professor Mahmud Asad Jo‘shon “Islom, sevgi va tasavvuf” kitobida dinlarning ikki xil bo‘lishini tushuntiradi. Birinchisi – ilohiy dinlar. Bular ulug‘ Alloh tomonidan yuborilgan bo‘lib, mohiyatan islomdir. Bunday dinlarda Alloh o‘z amrlarini ilohiy sahifalar yoki kitoblar vositasida bandalariga yetkazgan. Ikkinchisi – insoniy (bashariy) dinlar. Bular – insonlarning o‘zlari o‘ylab topgan aqidalar bo‘lib, ularda ilohiylik, islomiylik xususiyati yo‘q. Bunday insoniy dinlarda Allohga ibodat o‘rnini but va sanamlarga sig‘inish egallagan²⁸. Kishilarining diniy dunyoqarashi va dinga e‘tiqodi ham turlicha bo‘lib kelgan. Negaki, ularning tafakkur darajasi e‘tiqodini belgilab bergan. Diniy tafakkur evolyutsiyasi jarayonida e‘tiqodning ham turlicha ko‘rinishlarini mavjud bo‘lib kelgan va hatto bugungi davrgacha ayrim xududlarda saqlanib qolgan. Jumladan,

- Azhob Ur-Ruhoniya - bu toifaga kiruvchilar farishtalarga sig‘inadilar.

- Sobiiylar – quyoshga sig‘inuvchi – oftobparastlar. Ular har kuni besh marta quyoshga sig‘inadilar.

- Oyga sig‘inuvchilar – bu toifaning so‘zlariga qaraganda, oy Alloh taoloning farishtalaridan eng ulug‘i bo‘lib, ta’zimga va unga sig‘inishga loyiqdir²⁹.

- Zuhalparastlar – bu toifadagilar Zuhal yulduziga sig‘inuvchilardir. Ayrim, astronomlar va munajjimlarni bu toifaga kiritish mumkin.

- Suvparastlar – suvga sig‘inuvchilar.

- Butparastlar.

Demak, insoniyatning diniy tafakkuri azaldan uning e‘tiqodi va hayot tarzini belgilab berib, uning muammolarini yechimida, yaxshi turmush tarzini yaratishida ko‘mak berib kelgan.

Islom dini vujudga kelishigacha bo‘lgan davrda ham diniy tafakkurning mavjud ekanligi ko‘plab aqidalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Johiliya davrida arab qabilalari orasida “dahr” tushunchasi keng tarqalgan edi. Bu kishi o‘z irodasini, taqdirini belgilay olmaydi, balki undan yuqori turuvchi qandaydir sifat (dahr) orqali belgilanishi bilan izohlanadi. Narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganga azob berilishiga ishonch yo‘q edi. Shu sababdan ham, kishilar shu hayotda o‘z holicha yashash, bu dunyoning rohatlaridan zavqlanishni afzal bildilar. “Dahr”ni xush ko‘ruvchi kishilar esa “dahriylar” deb atala boshlandi. Demak, diniy tafakkurni qay darajada shakllanishida mavjud siyosiy-ijtimoiy tizimning ham ta’siri bo‘ladi.

²⁸ Обидов Рахматуллох кори. Куръон ва тафсир илмлари. – Т.: Тошкент ислом университети. 2003. – Б.15.

²⁹ O‘sha asar. Б. 18.

Bundan kelib chiqib, din va diniy tafakkur elementlarini ta'riflashda mavjud ijtimoiy tizim sub'ektlari turlicha yondashadilar. Sotsiologlar din insonlarda bu dunyodagi hayot shaklidan rozilik hissining uyg'onishida muhim o'rin tutadi deyishsa, tarixchilar diniy e'tiqod sababidan sodir bo'lgan voqea-hodisalardan kelib chiqib, dinga baho beradilar. Teologlar esa dinga nisbatan ta'rif berganda, insonlar tomonidan qabul qilingan e'tiqodlar zamirida haqiqat yotishi nuqtai nazardan yondashadilar³⁰.

Xulosa qilib mulohaza yuritganda, ajdodlarimiz qoldirgan diniy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy meros kishilar ongida diniy tafakkurni shakllantirish, ularda yuzaga keladigan savollarga javob topish va to'g'ri yo'lni tanlash imkonini beradi. Diniy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy muhit omili bilan bog'liq bo'lib, bu empirik, mantiqiy bilish, anglash, fikrlash va o'zgaga tushuntirib bera olish mumkin bo'lgan diniy ilm, ta'limot, bilimlarni ongli va ratsional tarzda qabul qilish bilan belgilanadi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Mustaqillik yillarida diniy-ma'rifiy soha evolyutsiyasining transformatsiyalashuvi”** deb nomlanadi. Mazkur paragrafda tarixiy voqeliklardagi xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish, milliy o'zligini anglab yetgan ma'rifatli insonni shakllantirish, ajdodlarimiz diniy-falsafiy merosini tiklash, ularning ezgu g'oyalarini xalqqa yetkazishda zamonaviy metodologiyalardan foydalanish masalalari tahlil etiladi.

Mustaqillikning ilk kunlardanoq mamlakatimizda o'zlikni anglash, diniy e'tiqod va milliy mafkurani mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratildi. Ajdodlarimiz merosini tiklash, ularning ezgu g'oyalarini xalqqa yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, jamiyat a'zolarini yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun, chin e'tiqod, sof va sog'lom diniy tafakkurni shakllantirish davr talabi edi. Mustaqilligimiz arafasidagi va undan keyingi vaziyat ham shuni taqozo etardi. “Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish, xalqlarimizning tafakkurida yuksak axloqiy ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur”³¹ edi. Demak, mustaqillik yillarida kishilarda diniy tafakkur “immunitetini” shakllantirish muhim strategik vazifa qilib belgilandi.

Diniy tafakkurni shakllantirish masalasiga falsafiy nuqtai-nazardan yondashilganda, milliy mustaqilligimizga, milliy rivojlanishimizga tahdidlarni bartaraf etish faqat bir yo'l – ma'rifiy yo'l bilan hal etilishi mumkin. Falsafiy mushohada qilar ekan, birinchi Prezidentimiz “jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Ularni pisand qilmagan jamiyat pirovard – oqibatda tanazzulga yuz tutadi”³² deb ta'kidlagan. Ma'naviyat asosida kishilar o'rtasida mehr-muruvvat, hamjihatlik, hamdardlik, hamfikrlilik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat kabi axloqiy kategoriyalar yotadiki, ular “tolerantlik” yoki

³⁰ Белфакс. Религии мира. Lion Publishing Sandy Lane West. England – Oxford: 1994. – С. 10-11.

³¹ Хусниддинов З. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари. – Т.: Тошкент ислом университети. 2005. – Б.4.

³² Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон. 1996. – Б. 222.

“bag‘rikenglik” degan ijtimoiy kategoriya vositasida integrativ shaklda ifoda etiladi. Konseptual jihatdan qaraganda ushbu muammo ongda tolerantlikning shakllanishi degan qiyofada gavdalanadi. Kishi ongida tolerantlik hislatining shakllanishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, osoyishtalik, tinchlik va fuqarolararo hamjihatlikning muhim garovidir. Muammoning siyosiy va falsafiy jihatlaridan biri tolerantlikning “murosa” va “bag‘rikenglik” kabi kategoriyalar bilan o‘zaro subordinatsiya qilishi, integratsiyalashuviga erishishdir³³.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

Birinchi, kishilarning ma’naviy qiyofasi, diniy va dunyoviy bilimlarining o‘lchovi ularning tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Bu borada, tafakkur qilish dunyoni inson ongida in’ikos etishning eng ilg‘or vositasi sifatida tavsiflanadi. Insoniyatning tafakkuri ijtimoiy hayotga yangiliklar, muammolarga innovatsion yechimlarni taqdim etadi.

Ikkinchi, kishilik jamiyatida muhim ahamiyat kasb etgan diniy tafakkur ijtimoiy hayotni tartiblashtirish vazifasini bajaradi. Sog‘lom diniy tafakkur shakllanmagan, yoki noto‘g‘ri talqin qilingan jamiyatda ijtimoiy tartiblar izdan chiqadi.

Uchinchi, mustamlakachilik davrida islom diniga bo‘lgan munosabat natijasida dunyo hamjamiyati orasida ksenofobiya va islomofobiya kuchaydi. Din bilan bog‘liq har qanday fikr va g‘oya qattiq qoralandi. Bu esa o‘z navbatida, kishilarni diniy savodsizga aylantirib ulgurdi. Bundan kelib chiqib, mustaqillik yillarida diniy tafakkur qaramligi kuchayishini oldini olish bo‘yicha strategik vazifalar amalga oshirildi.

To‘rtinchi, bugungi g‘oyaviy va mafkuraviy hujumlar tahlikasi avj olayotgan bir davrda kishilarning diniy tafakkurini sog‘lom tarzda shakllantirish va rivojlantirishda islom ta’limoti, xususan, kalom ilmi, muqaddas Qur’oni karimdagi ezgulik g‘oyalari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Diniy tafakkur shakllanishi va uning ijtimoiy munosabatlar rivojidadagi o‘rni”** deb nomlanib, unda islom ta’limoti asosida shakllangan diniy tafakkurning afzalliklari va uning ijtimoiy muhitni yangilashga ta’siri o‘rganilgan, yangi ma’naviy makonni yaratishda diniy tafakkurning ijtimoiy ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil etiladi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi **“Islom axloqshunosligi: ijtimoiy-falsafiy yondashuv”** deb nomlanib, mazkur paragrafda islom ta’limotining ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy, g‘oyaviy-mafkuraviy jihatlari ochib beriladi.

Din va unga tegishli bo‘lgan, uning ta’sirida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan g‘ayri tabiiy voqea-hodisalarni idrok etish va to‘g‘ri anglab yetish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uni boshqarish uchun islom ta’limotida ilgari surilgan axloqiy me’yorlar, shuningdek, Qur’oni karim va hadislar muhim diniy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda kishilarning diniy tafakkurining shakllanishi ular hayotiga bir muncha yengillik, ruhiy xotirjamlik, ma’naviy komillik kabi insonning ichki dunyosi uchun

³³ Саифназаров И., Обидов А. Динлараро ҳамжихатлик – ижтимоий барқарорлик омили. – Т.: 2019. – Б. 20.

zarur ozuqa bilan ta'minlashi e'tirof atiladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda inson ongi va tafakkurida mafkuraviy urushlar avj olmoqda. Jumladan, missionerlik guruhlarining kengayishi, nisbatan ilmsiz qatlam bo'lgan yoshlarning ongini egallashga bo'lgan urinishlar sonining oshishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bunday oqim va yo'nalishlar to'g'risida fuqarolarimizning yetarlicha diniy bilimga ega bo'lishi, ta'lim muassasalarida yoshlarimizga ilmiy asosga ega bo'lgan diniy bilimlarni berish, diniy qadriyatlardan jamiyat a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirish maqsadlarida foydalanish turli oqimlar mafkuraviy tazyiqlariga qarshi kurashish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu o'rinda islom ta'limotining ma'naviy-mafkuraviy qimmatini e'tirof etish lozim. Islom ta'limotiga ko'ra, tilidan va qo'lidan musulmonlarga zarari yetmaydigan kishi haqiqiy musulmondur.³⁴ Demak, shu kabi g'oyalar bugungi kunda ham turli din niqobi ostidagi ma'naviy tazyiqlarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirishda muhim falsafiy asos vazifani bajaradi. Kishi tili bilan guvohlik keltirib, jismonan amal qilsayu, qalbi bilan tasdiqlamasa, u munofiq kimsadir³⁵. Vaholanki, islom olamida qalb insonning imon mustahkamligi yo'lida birlamchi o'rin egallaydi.

Islom jamoaviylikni ustun qo'yuvchi, tenglik va hurfiylikni, insonparvarlik va haqchilikni oliy o'ringa qo'yuvchi muqaddas dindir. Johiliya davrida "farr" sohibining hukmi mutlaq bo'lgan va unga hech kim e'tiroz bildira olmagan. "Xalq hukmi", "Xalq irodasi" degan tushunchalar u davr uchun notanish edi. Islom e'tiqodi bu qarashlarni tubdan yangiladi. Qur'oni karimda insonning yerdagi xalifa ekanligi qayta-qayta ta'kid etilib, tavhid e'tiqodini qabul qilganlar o'zaro teng, birodar deb qabul qilindi. Musulmonlar jamoasi ma'nosini bildiruvchi "umma" tushunchasi shakllandi. Uning hech bir a'zosi Alloh oldida o'zgalardan ortiq imtiyozga ega emas edi. Albatta, "umma" ning mohiyati bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda ham to'liq anglab etilgani yo'q. Islomdagi umma tushunchasi asta-sekin teranlashib, ma'naviy, siyosiy hayotdagi qator o'zgarishlar natijasida VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asrning boshlarida mintaqada yagona millat shakllandi.

Islomiy tafakkur dunyoning o'zgarishiga, uning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. O'rta asrlarda kishilik jamiyatining rivojlanishiga o'zining yuksak ilmiy meroslari bilan hissa qo'shgan allomalar, qomusiy olimlarning ko'pchiligi musulmon bo'lgan. Bu o'rinda islom ilmu-ma'rifat dini ekanligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Islom sivilizatsiyasi o'zining keng qamrovligi, izchilligi va kreativligi bilan ajralib turadi.

Islom tafakkurida yaxshi insonlarning fazilatlarini haqida turli hadislar mavjud. Jumladan, "Nuqsonsiz bo'laturib kamtarin, o'zini o'ta miskin tutmagan holda past tutuvchi, halol yo'l bilan to'plagan mollaridan ehson qiluvchi, iffatli, ilmu-hikmat ahli bilan aralashib yuradigan, miskin va bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamga ko'p yaxshiliklar bo'lur. O'zini kamtar olib yuruvchi, halol kasb qiluvchi, qalbi pok, ko'rinishi yoqimli, odamlarga o'z yomonligini yetkazmay yuradigan kishilarga naqadar yaxshi! Ilmiga amal qiladigan, ortiqcha dunyosidan xayru ehson qiladigan, behuda gapdan tilini tiyadigan kishilar naqadar yaxshi kishilardir"³⁶.

³⁴ Кўткү Мухаммад Зоҳид. Мўминнинг сифатлари. – Т.: 2004. – Б. 2.

³⁵ Атамуродов Ш., Шойзокова Д. Пайғамбарлар тарихи. –Т.: Ғофур Ғулом. 2018. – Б. 25.

³⁶ Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. –Т.: Ғофур Ғулом. 2017. – Б.184.

Guvohi bo‘lib turibmizki bunday ijtimoiy-ma‘naviy asoslar sog‘lom diniy tafakkurni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Islom falsafasida inson, borliq, jamiyat va uning axloqiy tayanchlari, dinning axloqiy tamoyillari haqida turli ta‘limotlar ishlab chiqilgan. Tasavvuf ta‘limoti ana shunday ta‘limotlarda biri sanaladi. Tasavvufning bosh g‘oyasi va maqsadi – “insonga Alloh bilan qilgan ahdu paymoni eslatib, uning zarurati va sirlaridan xabar berib, inson fitratida mavjud bo‘lgan Alloh roziligiga erishmoq orzusini bu dunyodayoq ro‘yobga chiqarmoq yo‘llarini ko‘rsatishdan iboratdir.

Islom tafakkurining negizlaridan bir bo‘lgan aqid ilmi, uzoq yillar mobaynida kishilarni borliq haqidagi bilimlarini oshirish, ularni mantiqiy firklashga o‘rgatuvchi, dunyoni bilish yo‘lidagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlovchi ta‘limotlardan biridir. Bu ilmning yetuk sohiblaridan biri bo‘lgan Nasafiyning bu boradagi qarashlari dunyo olimlari tomonidan tan olingan va hozirgi kungacha o‘rganilib, foydalanib kelinmoqda.

“Yangi ma‘naviy makonni yaratishda diniy tafakkurning ijtimoiy ahamiyati” deb nomlanuvchi paragrafda taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, azaliy muammolarga yangicha yondashuvlar va yechimlarni topa olishga qodir bo‘lgan diniy tafakkurning shakllanishi bilan bog‘liq muammolar tahlil etiladi.

Kishilik sivilizatsiyasi insonlarning hayot tarzini yaxshilashga ko‘maklashuvchi bo‘lib, insonni axloqsizlik, ma‘naviyatsizlik, tubanlik sari boshlamasligi lozim. “Menga hamma narsa mumkin” tamoyili asosida ish ko‘rish kishining axloqiy tafakkurini tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Kishilar ongida sekulyar va sokral bilimlarni bir xillikda shakllantirish va rivojlantirishning ijobiy jihatlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunda ularning diniy va kreativ tafakkuri o‘rtasidagi bog‘liq va qarama-qarshi tomonlarini anglash mumkin. Kishilarni uch muhim omil harakatga undaydi. Bu ehtiyoj, manfaat va qo‘rquvdir. Ushbu omillar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

